

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZELOGIZMLARNING QO'LLANILISHI

Po'lotova Gulmira Murodovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotasiya. Ushbu tezisdagi o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar va frazeologizmlarning sinflarga tasniflanishi haqida misollar yordamida yoritib berilgan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik chatishmalar, frazeologik qo'shilmalar, frazeologik birlashmalar.

Bilamizki, bugungi kunda jamiyatimizda frazeologizmlarning o'rni beqiyos. Og'zaki so'zlashuvda odamlar frazeologik birliklarni qo'llashni odat tusiga aylantirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Frazeologizmlar aksariyat ingliz tilida ham, boshqa tillarda ham ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning muallifi ma'lum emas, kelib chiqishi ham aniq emas, degan fikrlar uchrab turadi. Shu ma'noda A.V.Kunin ingliz tili frazeologizmlarining ko'pchiligining muallifi noma'lum bo'lib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrni ko'rsatib beradi [2.10]. V.V.Vinogradov esa frazeologizmlarni uch sinfga tasniflaydi. Keling endi ularni birma-bir yoritib beramiz.

- 1.Frazeologik chatishmalar (phraseological fusions).
- 2.Frazeologik qo'shilmalar (phraseological units).
- 3.Frazeologik birlashmalar (phraseological collocations or combinations).

Frazeologik chatishmalar komponentlarining ma'nosi butun birlikning ma'nosiga aloqador bo'lmagan frazeologizmlardir. Frazeologik birlashmalar o'ziga xos valentlikka ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. Bunday frazeologik birliklarning komponentlaridan biri o'zining to'g'ri ma'nosida, qolganlari metaforik ma'noda qo'llanadi. Frazeologik birlashmalar ma'lum darajada semantik jihatdan bo'linmasdir, ya'no ma'no jihatidan bo'linmas birliklardir.

Masalan: *heavy father- teatr asaridagi asosiy rol; To luck the bucket- o'lmoq;*

Red tape- byurokratik metod kabi frazeologizmlar yaxlit holda ma'no beruvchi frazeologizmlardir, ya'ni frazeologik birlashmalardir.

Frazeologik qo'shilmalar -ma'nosi bir butun frazeologizmlarning frazeologik ma'nosidan anglashiladigan frazeologizmlardir. Frazeologik qo'shilmalarning leksik komponentlari eng turg'un hisoblanadi.

Masalan: *to look a gift for horse in the mouth* (to examine a present too critically, to find fault with smth one gained without effort);

to ride a high horse (to behave a superior, haughtily, overbearing way);

a bit bug (a person to importance)

Frazeologik birlashmalar- o'ziga xos valentlikka ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. Bunday frazeologik birliklarning komponentlaridan biri o'zining to'g'ri ma'nosida, qolganlari metaforik ma'noda qo'llaniladi. Frazeologik birlashmalar ma'lum darajada semantik jihatdan bo'linmasdir.

To be at one's wits end, to be a goodhand at smth, to come to a sticky end, to stick at nothing, bosim friend kabilar frazeologik birlashmalarga misol bo'la oladi.

Shuningdek, o'zbek tilida frazeologizm leksik birlik kabi qo'llanish darajasi nuqtayi nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra umumiste'mol frazeologizmi (*holdan toymoq, shunga qaramay, ro'yobga chiqmoq*) va qo'llanishi chegaralangan frazeologizm farqlanadi. Qo'llanishi chegaralangan frazeologizm qo'llanish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum bir tafovutlarga ega:

Eskirgan frazeologizm: *alifni kaltak demoq, aliflayloni bir cho'qishda qochiradigan, yeng silkitmoq;*

Dialektal frazeologizm: *alag'da bo'lmoq*(xavotir olmoq), *ko'ngli tob tashladi* (ezildi), *halak bo'lmoq* (ovora bo'lmoq);

Ilmiy frazeologizm: *nazar tashlamoq, ko'zga tashlanmoq, chambarchas bo'lganmiz, to'g'ri kelmoq, qulay qurshov;*

Badiiy frazeologizm: *sabr-kosasi to'lmoq, og'zining tanovul qochmoq, og'zidan bodi kirib, shodi chiqmoq, boshida yong'oq chaqmoq;*

So'zlashuv nutqi frazeologizmi: *arpani xom o'rmoq, yerga urmoq, yuragi qon, ko'zi tor, ko'zi och, boshi ochiq, pixini yorgan.*

Frazeologizmlarning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xos. Ingliz tilida ham frazeologizmlar bir nechta olimlarning asarlarida o'z aksini topgan. Muqaddas diniy kitobdan kelib chiqqan so'z va iboralar S.Stoffenning "Studies in English, Written and Spoken" kitobida keng taqdim etilgan.[8.4-son]. "Scriptural phrases and Allusions in modern" bobida Bibliya iboralari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.L.P.Smit ham o'zining "Ingliz tili frazeologiyasi" kitobida ularni alohida o'rgangan. Muallif "Ingliz tilidagi Bibliya abarotlari va iboralarining soni shu darajada ko'pki, ularni yig'ish va sanab chiqish oson vazifa emas" deb yozadi.[8.4-son]. Tahlillardan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Adam' apple- qo'shtomoq, kekirdak olmasi;

The apple of Sodom- chiroyli, ammo aynigan ho'l meva;

Milk and honey- to'kin-sochinlik;

A forbidden fruit- ta'qiqlangan ho'l meva.

Xulosa qilib aytadigan bolsak, frazeologizmlar har ikki tilda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va ular tilning boyishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek,

frazeologizmlar har doim o'z ma'nosida qo'llanavermaydi, ular ko'pincha ko'chma ma'nolarda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyatlari -T.: O'TA.1976. 5-son.
2. Kharatova S.K., & Ismailov Use of innovative technologies in the educational process. Science and Education, 2022. 3(3), 713-718.
3. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi.-T.:1997.-B.37.
4. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. SamDU.: 1999.-B.86.
5. Kharatova, S. K. Strategic issues of improving spiritual and educational activities in the Republic of Uzbekistan. Academic research in educational sciences, 2(11), (2021). 313-320.
6. Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasi haqida.-T.:O'zMU to'plami.2007.
7. Haydarov A., Jo'raqulova G. Frazeologik iboralar tarjimasi xususida. Tilning leksik-semantik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami. - T.: Muharrir. 2012. -B.10-13b
8. Niyazmetova D. Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi (Bibliya materiallari asosida). BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012.4-son.